

Toshkentda Madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlari qarindoshlari bo'yicha xalqaro seminar o'tkazildi

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov Toshkent botanika bog'ida "Markaziy Osiyo madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlari" mavzusidagi xalqaro seminar o'tkazildi.





Unda Janubiy Koreya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Respublikalaridan 40 dan ortiq ishtirokchi, shu jumladan, yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari, botanika bog'lari va xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi.

Seminar "Markaziy Osiyoda madaniy ekinlarning yovvoyi ajdodlarini muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanish" xalqaro loyihasi doirasida tashkil etildi.

Seminarning asosiy maqsadi:

Markaziy Osiyodagi genetik resurslarni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish;

Yovvoyi o'simliklarni tadqiq qilish orqali barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish;

Ilmiy muassasalar o'rtasida tajriba almashish va mintaqaviy strategiyalarni shakllantirish.

Seminarning ochilishida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov Toshkent botanika bog'i direktori S.X. Abdinazarov so'zga chiqib, biologik xilma-xillikni asrash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda Markaziy Osiyoda madaniy ekinlarning yovvoyi ajdodlari o'simliklarining o'rni haqida to'xtalib o'tdi.

Seminar doirasida:

Markaziy Osiyoda madaniy ekinlarning yovvoyi ajdodlari turlarining holati va ro'yxatga olinishi bo'yicha muhokamalar;

Ekspertlar va tadqiqotchilar ishtirokida davra suhbatlari;

To'plangan tajribalar bo'yicha taqdimotlar;

Tog' ekosistemalariga amaliy ekskursiyalar o'tkazildi.